O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 811.512.133'373.7'373.2

Dilshoda IBRAXIMOVA
PhD, dotsent, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Qarshi, O‘zbekiston
E-mail: ibraximovadilshoda2@gmail.com, https://orcid.org/ 0009-0006-0417-1554

Filologiya fanlari doktori, professor T.Jumayev taqrizi asosida

ONOMASTIK TARKIBLI IBORALARNING OLAM-TAFAKKUR-LISON MODELIDAGI TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqola onomastik tarkibli iboralarning olam–tafakkur–lison uchlik modeli asosidagi tahliliga qaratiladi. Tahliliy tadqiqogtimizda ingliz va o‘zbek tillaridagi atoqli otlar (antroponim, toponim, etnonim, zoonim va boshqalar) ishtirok etgan iboralarning har ikki xalqining olamni idrok etishi, uni tafakkurda aks ettirishi hamda til vositalari orqali ifodalashining o‘ziga xos mahsuli sifatida o‘rganiladi. Olam – tashqi voqelik, tafakkur – uning inson ongidagi aksi, lison esa shu aksning til birliklarida ro‘yobga chiqishi ekani nazariy jihatdan asoslanadi. Maqolada onomastik komponentning baholash (ijobiy, salbiy) ma’nolarini shakllantirishdagi roli va ularning iboralar semantikasidagi o‘rni, uning obrazlilik xususiyati borasida so‘z boradi. Ma’lumki, tarixiy shaxs, afsonaviy qahramon va joy nomlari asosida shakllangan iboralar xalqning tarixiy kechmishi, ma’naviy qadriyatlari, madaniy qarashlari va milliy dunyoqarashini o‘zida saqlaydi. Ularning aksariyati lingvokulturologik axborot tashuvchi birlik bo‘lib, ma’no ko‘chish jarayonida onomastik birlikning dastlabki leksik ma’nosi ramziy-metaforik mazmunga aylanadi. Shu bilan birqatorda, maqolada bunday iboralarning hosil bo‘lish yo‘llari, semantik tuzilishi va ularning ikki tilning chog‘ishtirma aspektida qiyosiy jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: onomastika, frazeologizm, ibora, olam, tafakkur, lison, lingvomadaniyatshunoslik, antroponim, toponim, ma’naviy qadriyat, milliy dunyoqarash.

АНАЛИЗ ОНОМАСТИЧЕСКИХ СОДЕРЖАТЕЛЯЩИХ ФРАЗ В МОДЕЛИ «МИР-МЫСЛИ-ЯЗЫК»

Аннотация

Данная статья посвящена анализу выражений с ономастическим содержанием на основе тройственной модели «мир-мысль-язык». В нашем аналитическом исследовании изучаются выражения, включающие имена собственные (антропонимы, топонимы, этнонимы, зоонимы и др.) в английском и узбекском языках, как единый продукт восприятия мира обоими народами, его отражения в мышлении и выражения посредством языка. Теоретически это основано на предположении, что мир — это внешняя реальность, мышление — это его отражение в человеческом разуме, а язык — это реализация этого отражения в языковых единицах. В статье рассматривается роль ономастического компонента в формировании оценочных (положительных, отрицательных) значений и их место в семантике выражений, их образная природа. Как известно, выражения, сформированные на основе исторических личностей, легендарных героев и топонимов, сохраняют историческое прошлое, духовные ценности, культурные взгляды и национальное мировоззрение народа. Большинство из них представляют собой единицы, несущие лингвокультурную информацию, и в процессе переноса значения исходное лексическое значение ономастической единицы превращается в символико-метафорическое содержание. В то же время в статье рассматриваются способы формирования таких выражений, их семантическая структура и сравнительные аспекты в сравнительном аспекте двух языков.

Ключевые слова: ономастика, фразеология, выражение, мир, мысль, язык, лингвокультурология, антропоним, топоним, духовная ценность, национальное мировоззрение.

ANALYSIS OF ONOMASTIC CONTENT PHRASES IN THE WORLD-THOUGHTS-LANGUAGE MODEL

Annotation

This article analyzes expressions with onomastic content based on the tripartite “world-thought-language” model. Our analytical study examines expressions including proper names (anthroponyms, toponyms, ethnonyms, zoonyms, etc.) in English and Uzbek as a unified product of both peoples' perception of the world, its reflection in thought, and its expression through language. Theoretically, this is based on the assumption that the world is an external reality, thought is its reflection in the human mind, and language is the realization of this reflection in linguistic units. The article examines the role of the onomastic component in the formation of evaluative (positive and negative) meanings, their place in the semantics of expressions, and their figurative nature. As is well known, expressions based on historical figures, legendary heroes, and toponyms preserve the historical past, spiritual values, cultural views, and national worldview of a people. Most of these units carry linguacultural information, and in the process of meaning transfer, the original lexical meaning of the onomastic unit is transformed into symbolic and metaphorical content. It also examines the methods of forming such expressions, their semantic structure, and comparative aspects in the comparative perspective of two languages.

Keywords: onomastics, phraseology, expression, world, thought, language, linguacultural studies, anthroponym, toponym, spiritual value, national worldview.

Kirish. Borliqdagi barcha mavjudliklarni nomlash ehtiyoji insonlarda muloqot ko‘nikmasi shakllanish nuqtasi bilan chambarchas bog‘liq. Inson paydo bo‘lishi bilan borliqdagi barcha mavjudlik nom olish jarayoniga o‘tgan deyish mumkin, chunki olam insonga qadar ham mavjud bo‘lgan, biroq hech bir obyektning o‘zi nomlanishga ehtiyoji bo‘lmagan. “...jamiyatning kundalik muloqoti, lisoniy hayoti uchun zarur bo‘lgan bir ehtiyoj – bu obyektiv borliqdagi narsa

va hodisalar, tirik mavjudotlarning har birini alohida, yakkalab, donalab nomlashdir” [2]. O‘zaro turdosh bo‘lgan obyektlarni bir-biridan farqlash ehtiyoji va zarurati asosida paydo bo‘lgan atoqli otlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati beqiyosdir.

Olamning mavjudligi e’tirozsiz haqiqat. Shu mavjudlik qamroviga inson ham bir qism hisoblanadi. Insonning yoq bo‘lishi borliqning yo‘q bo‘lishini anglatmaydi. Real olamdagi barcha narsa va hodisalarga nom berish, ularni baholash esa faqat insonga berilgan imkoniyatdir. Nomlash va baholash esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshiriladigan amal emas. Bunda jarayon tafakkurdan boshlanadi, fikr shakllanadi, “… borliq haqidagi fikrni faqat lisoniy shakllar vositasida o‘qiy olamiz”. Til faqat olam manzarasini yaratish vositasi emas, balki insoniylik jamiyatining barcha o‘zgarishlariga ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki umumiy olam manzarasini tashkil etuvchi tabiat hamda jamiyatning va uni tashkil etuvchi barcha insonlarning ichki ruhiy olami, ma’naviy olami, iqtisodiy va siyosiy hayotining tasviri til vositasida chiziladi, axborot almashunivi natijasida jamiyatdagi voqeliklar amalga oshadi.

Har bir xalq olamni o‘ziga xos tarzda idrok etadi, konseptuallashtiradi va til orqali ifodalaydi. Agar bu o‘ziga xoslik bo‘lmaganda va idrokiy jarayonda farqli jihatlar faollashuvi ko‘zga tashlanmaganda, tillardagi lisoniy birliklar ham leksik-semantik, kognitiv, pragmatik va boshqa xususiyatlari jihatidan bir xillikka ega bo‘lar edi. “Til tafakkur va madaniyatning eng muhim ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Inson omili iboralar yoki frazeologik birliklarning shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi, chunki aksar frazeologik birliklar insonlar va ularning turli faoliyat sohalari bilan bog‘liq. Qabul qiluvchi omil muloqotning muhim elementidir. Bundan tashqari, odamlar tashqi narsalarga, jumladan, jonsiz narsalarda ham insoniy elementlarni singdirishga intiladilar”. Tafakkur egasi inson va tafakkur orqali milliy-madaniy yondoshuvlarni shakllantiruvchi ham inson, demak lisoniy manzaraning yaratilishi antroposentrizm tamoyillari asosida jarayonlashadi deyish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Til faqat muloqot vositasi bo‘libgina qolmay, balki milliy tafakkur, tarixiy kechmish va milliy qadriyatlarning aksi hisoblanadi. Xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi natijasida yuzaga keluvchi iboralar, ya’ni “til tizimidagi leksik-grammatik, semantik va sintaktik yaxlit til birliklari” faqat ma’lum bir tushunchani ifodalabgina qolmay, xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy stereotiplarini o‘zida aks ettiradi. “Inson ongining abadiy nomukammalligi, shuningdek, inson doimo o‘zini o‘rab turgan hamma narsani ma’naviylashtirishga intilishida ham namoyon bo‘ladi. U tabiat o‘lik va jonsiz ekanligini tasavvur qila olmaydi; uning tasavvuri doimo jonsiz narsalarga hayot baxsh etadi, ammo bu hammasi emas: inson tashqi dunyoning barcha narsalariga doimo o‘z shaxsiyatiga xos xususiyatlar va intilishlarni bog‘laydi” [Bally, 1961].

Shu qadar murakkab hodisotning bir komponentik ishtirokchisi bo‘lgan iboralarning olamning lisoniy manzarasini yaratishdagi roli dunyoqarashni namoyon etishidadir. Iboralar orqali voqelikning muayyan jihatlari obrazli konseptuallashtirilar ekan, ular atrof-muhitning qanday tavsiflanishi va tushunilishini namoyon etadi. Xalqning fikrlash usullari va psixologik xususiyatlari, masalan, o‘zbek tilidagi sabr-toqat, hurmat-ehtirom, mehmondo‘stlik, birdamlik kabi tushunchalari frazeologik birliklar vositasida ifoda etilishi mumkin. Masalan, andisha va andishasizlik borasidagi qarashlar quyidagi iboralarda o‘z aksini topadi.

Rajab tulki qorovul bo‘ldi, xotini erovul bo‘ldi. / Rajab tulki tegirmonchi bo‘ldi, xotini o‘maronchi bo‘ldi.

Ingliz tilidagi Rome wasn’t built in a day iborasi esa sabr-toqat tushunchasini ifodalaydi.

So‘zlovchi tomonidan olam haqidagi bilimlarni hosil qilish va talqinlashlarida iboralar muhim kognitiv ahamiyat kasb etadi. Metaforik va ramziy ma’nolar orqali mavhum g‘oyalarni konseptualizatsiya qilish imkonini yaratiladi. Masalan, ‘Aflotun miya’ (O‘zbek tilining izohli lug‘ati) iborasi aqliy salohiyat yoki quvvayi hofiza kabi mavhum tushunchalarni tarixiy shaxsning konkret jismoniy organi bilan bog‘lovchi kognitiv metaforadir. Bu kabi iboralar insonning borliqni qay tarzda idrok etishini ko‘rsatadi.

Bilish - idrok etish jarayoni har bir insonning o‘z quvvai-hofizasi bilan bo‘g‘liq hodisotdir. Aynan bir tilda lisoniy olamning yuzaga kelishi, uning tarkibiy qismi va xos bo‘lgan har qanday o‘zgarishlar tashqi va ichki ta‘sirlar asosida sodir bo‘ladi. Ta‘sirlar doirasida globallashuv jarayoni, turli sohalar bo‘yicha xalqaro munosabatlar, innovatsiyalar, ma‘lum jamiyatning yashash hududi, ushbu jamiyatda kechadigan tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa jarayonlar anglashiladi. “Inson borliqdagi predmet va hodisalarni o‘zi yashab turgan jug‘rofiy hududi, jamiyatning shakli, tarixi va an’analari, turmush tarzi kabi omillardan kelib chiqqan holda idrok qiladi va til birliklari vositasida nomlaydi va ifoda etadi”. Tilda paydo bo‘lgan so‘z ham turli jarayonlarga to‘qnash keladi: o‘zgarishlar, ma’no ko‘chish, iste‘moldan chiqish va yoki tiklasnishi, h.k.z. Avvaliga bir obyektni referent sifatida qabul qilgan so‘z semantikasi keyinchalik turli ma’nolarni anglatuvchi konseptga aylanadi va yoki komponentlashuv bosqichiga to‘qnash kelgan holda so‘z guruhlarini hosil qilishi, birikmalar tarkibiga kirishi mumkin. “... lison o‘ta takomil, murakkab, ko‘p qirrali, ko‘p vazifali, bir paytning o‘zida ijtimoiiy ham individual, yaratilgan va yaratuvchanlik kuchiga ega bo‘lgan, turg‘un va harakatdagi, tizimli va notizimiy xususiyatli hodisadir. Kognitiv nuqtai nazardan iboralarning ahamiyatchanligi inson tafakkuridagi mavjud bo‘lgan konseptlar va assotsiatsiyalarni ifodalashi bilan e’tirof etiladi. Ya’ni ular borliq haqidagi bilimlarning tilga ko‘chgan naqshlari hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Har bir ibora ostida albatta qiziqarli ma’lumot, axborot yoki hikoya yotadi. Masalan: ‘Mother Carey’s chickens’ iborasi ingliz xalqining dengiz hodisotlariga aloqador mifologik qarashlari bilan bog‘liq. Ularga ko‘ra Kery ona ba’zida ruh, ba’zan jodugar va hatto iloha sifatida ta’riflanadi. U bo‘ron chaqiruvchi iloha bo‘lib, ko‘plab kemalarni suvga g‘arq qilgan, falokatlar keltirgan obraz hisoblanadi. Dengizda bo‘ron boshlanishidan oldin ko‘plab qushlar charx uradi va aytishlaricha ular Keri onaning kelishidan dalolat bo‘lib, osmonda unga hamrohlik qiluvchi bolalari, ya’ni jo‘jalaridir. Falokatga uchragan bir kemaning tirik qolgan yo‘lovchilaridan biri, falokat sababi so‘ralganda, hayajon bilan sababchi sifatida “Mother Carey’s chickens” deb yuborishi iboraning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan. Aslida ibora dengiz chag‘alaylarini anglatsada, bugungi kunda u yashash hujrasi, uning to‘lovi yoki umumiy xarajatlarni bahamlashib yurgan ikki kishiga nisbatan ham qo‘llanadi.

O‘zbek tilidagi ‘Qora Botir’ iborasidagi ‘Botir’ antroponimi xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan “Tohir va Zuhro” ertagidagi salbiy qahramonning nomi bo‘lib, bugungi kunda ikki kishi, xususan sevishganlarning munosabatiga raxna solishga uringan kishiga nisbatan qo‘llanadigan idiomatik birlikka ko‘chgan.

Atoqli otlarning turdosh otga va/yoki ifodalovchi, tasvirlovchi vosita sifatida boshqa so‘z turkumiga ko‘chish holatini, asosan, ularning iboralar, idiomalarning tarkibiy komponentiga aylanishi bilan bog‘liq vaziyatlarda kuzatish mumkin. Benjamin of the family – supraqoqdi (oilaning erkatoy kenjasiga nisbatan qo‘llanadi). ‘Benjamin’ antroponimik birligi asliyati yahudiy tiliga taqalib, adabiy jihatdan ‘janub o‘g‘li yoki ‘o‘ng qo‘l o‘g‘il, o‘ng tomon o‘g‘il’ ma‘nolarini anglatadi. Salb yurishlari natijasida bu antroponim Angliyada atoqli ot sifatida iste‘molga kirgan.

‘Ben’ – o‘g‘il, ‘amin’ – ‘o‘ng tomon, o‘ng qo‘l, janub’ ildizlariga taqaladi. Benjamin bugungi kun ingliz tilida ‘Ben’ ba‘zida esa ‘Benny, Benji’ tarzida qo‘llanuvchi antroponim bo‘lib, Tavrotda keltirilishicha, u Yoqub payg‘ambarning eng kichik, o‘n ikkinchi o‘g‘li bo‘lgan [Ibraximova, 2020]. Ko‘rinib turibdiki, bir tushuncha, ya’ni kenja o‘g‘il tushunchasi har bir xalqning o‘z qarashlariga ko‘ra tilda ifodasini topgan. Olam haqidagi tushunchalarni ifodalovchi vosita bo‘lgan iboralar har bir xalqda farqli ekanligi albatta tasvir ko‘lamini rang-baranglashtiradi hamda avloddan avlodga madaniy axborotlarni tashiydi.

“Otasini so‘rasang - Ahmadi forig‘,

Onasini so‘rasang - tovoni yorig‘” [Mirzayev va boshqalar, 2016].

Majoziy-emotsional ma’noga ega bolgan, tasviriy-ta’rifiy ibora. Salbiy ma’no tashiydi va bir shaxsga nisbatan qo‘llanadi. Qanday? so‘rog‘iga javob bo‘la oladi. Topish-tutishi, yashash sharoiti haminqadar bo‘lgan, biroq maqtanchoq, kekkaygan, o‘ziga bino qo‘ygan, otdan tushsa ham, egardan tushmaydigan, ba‘zan ortiqcha, o‘rinsiz g‘ururini ko‘rsatuvchi kishiga nisbatan qo‘llanadi. Keltirilgan ibora bir domenga mansub sinonimik so‘z va so‘z birikmalari bilan vaykl - target aloqalariga kirishgan deyishimiz mumkin. Agar matallarning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olsak, misolimiz kinoya (irony)ga ko‘proq mos keladi. Ibora tarkibida metonimik aloqalarni ham topish mumkin. “Tovoni” so‘zi butun o‘rniqa qo‘llanayotgan tana qismidir. Majoziy manodagi ‘tovoni yoriq’ butun jismi horigan, charchagan, mehnatdan ezilgan kabi ma’nolarga muvofiq keladi. Gussensning har ikki metaforik va metonimik jarayonlar bilan kechuvchi konstruallar talqiniga oid metaftonimi g‘oyasining isboti ko‘zga tashlanadi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi, nega Ahmad antroponimi tanlangan nega Rahmat yoki Mahmud emas? Ahmad ismi arab tiliga xos bo‘lib, Allohga ko‘p hamdu-sanolar aytuvchi, maqtovga, olqishga sazovor kishi ma’nolarini anglatadi va bu ism Muhammad (s.a.v) payg‘ambarning sifatlaridan biridir. Rivoyatlarga ko‘ra, gunohlardan butunlay yiroq bo‘lgan Muhammad (s.a.v) payg‘ambardan boshqa har bir mavjudot do‘zaxga tushib, gunohalaridan forig‘ bo‘lib chiqar ekan. Forig‘ - xalos bo‘lgan, qutilgan, ozod bo‘lgan ma’nosida moddiy va ma’naviy qarashlarga ko‘ra yumushdan, tashvishdan qutilish, gunohlardan xalos bo‘lish tarzida qo‘llanadi. Zimmasidagi vazifa, burch, yumush, tashvishidan, kasallikdan, gunohlaridan xalos bo‘lgan inson jismonan va ruhan yengillikni his qiladi. Demak, forig‘ - yengil - hur - pokiza - toza - yorug‘ tarzida sinonimik aloqalarga kirisha oladi deyishimiz mumkin. Chunki kirdan forig‘ bo‘lgan ko‘zgu yorqinlashadi; yukdan forig‘ bo‘lgan inson yengillikni tuyadi. Hurlik, pokizalik, yengillik tushunchalari fazoviy maydonga tegishli bo‘lib, tovoni yoriqlik esa aksincha yer va tuproq bilan bog‘liq konstruallarni chaqiradi. Chunki, yorilgan tovon manzarasi ongda uyg‘onishi bilanoq, bunga sabab bo‘lgan chang va tuproq ham parallel tarzda uyg‘onadi. Demak, otasi - fazoga, onasi - yerga mengzalmoqda degan fikrga keladigan bo‘lsak, yana qo‘shimcha mulohaza uyg‘onadi. Nega teskarisi emas? Bu endi xalqning milliy-madaniy qarashlariga bog‘liq bo‘lgan jihatdir.

Milliy-madaniy qarashlarimizga ko‘ra insonning nasl-nasabi ota tomoni bilan belgilanadi, bu ko‘plik tomonidan qabul qilingan tamoyil. Lekin fiziologik jihatdan aslida bola ona qornida paydo bo‘ladi, oziqlanadi, rivojlanadi. Demak, zamini onaga borib taqaladi. Misolimizning birinchi qismini fikr, go‘ya o‘rnida atoqli otning qo‘llanishi bilan ta‘riflanuvchi antonomaziya tropi bilan xarakterlash mumkin.

Xulosalar. Umumlashma nomda iboralar deb yuritilishi mumkin bo‘lgan frazeologik birliklar, paremalar, turg‘un birikmalar va idiomalar, ularning tasnifi borasida turlicha gipotezalar, fikrlar mavjud. Iboralar orqali quvonch, sir, osonlik, hamjihatlik, adolat va shu kabi ko‘plab konseptlar turli xalqlarda turli obrazlar orqali ifodalanishi mumkinligini ko‘rish mumkin. Tilning leksik qatlami o‘zgarish, kengayib borish, undagi so‘zlar harakatlanish, ko‘chish, qo‘shimcha ma’no orttirish va aksincha yo‘qotish jarayonlarini bosib o‘tuvchi, ongda tasvirlar, konstruallarni chaqiruvchi hodisotdir. Bu qatlamda iboralarning alohida maydoni yuzaga kelgan va bu maydonga tegishli bo‘lgan birliklarni, ularga xos bo‘lgan barcha xususiyatlarni o‘rganish tilshunoslar qarshisida ko‘ndalang turgan masaladir

ADABIYOTLAR

1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. – 199 б.
2. Omonova M.Sh. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent, 2023. –212 b.
3. Rahmatullayev Sh.va boshqalar. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. –Toshkent, 2022. – 635 b.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. –92 b.
5. Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. –Toshkent, 1983. – 189 b.
6. Амасова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград, 1963. – 208 с.
7. Балли Ш. Французская стилистика / Пер. с фр. К.А. Долинина. – Москва, 1961. – 393 с.
8. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. - Москва. - 1977. – 210 с.
9. Гаврин С.Г. Фразеология современного русского языка. – Пермь, 1974. – 255 с.
10. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва, 1996. – 200 с.
11. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – London: The University of Chicago press, 2003. – 193 p.
12. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва, 2001. – 169 с.
13. Пелипенко А.А., Яковенко И.Г. Язык как система. – Москва, 1998. – 271 с.
14. Ibraximova D.T. Structural and grammatical features of anthroponomical units in the Uzbek language // Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation www. grnjournal.us .Vol. 2 (01). - 2024, P.42-45
15. Ibraximova D.T. Antroponimlar idiomatik birliklarning tarkibiy komponenti sifatida // BuxDU ilmiy axboroti №3. – Buxoro, 2020. – B.89-94